

## 5- LABORATORIYA ISHI

### Galogenlarning birikmalari eritmalaridan bir-birini siqib chiqarishi

1. Quyidagi jadvalni daftaringizga ko'chirib oling.

|               | NaCl | NaBr | NaI |
|---------------|------|------|-----|
| $\text{Cl}_2$ |      |      |     |
| $\text{Br}_2$ |      |      |     |
| $\text{I}_2$  |      |      |     |

2. Ikkita probirkaning biriga natriy bromid, ikkinchisiga natriy yodid eritmasidan 3—4 *ml* dan quying.
3. Probirkalardagi eritmalarga xlorli suvdan 1—2 *ml* dan quying. Sodir bo'lgan o'zgarishlarni kuzating va reaksiya tenglamalarini yozing.
4. Probirkaga natriy yodid eritmasidan 3—4 *ml* quying, uning ustiga bromli suvdan 1—2 *ml* quying. Sodir bo'lgan o'zgarishlarni kuzating, reaksiya tenglamalarini yozing.
5. Ikkita probirkaga 3—4 *ml* dan osh tuzi eritmasidan quying. Probirkalarning biriga bromli suvdan 1—2 *ml*, ikkinchisiga yodning spirtidagi eritmasidan 1—2 *ml* quying. O'zgarish sodir bo'ldimi? Nima uchun?